

"MUHOKAMAT UL-LUG‘ATAYN" ASARINING TAVSIFI

*Samarqand davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti o‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Umirzoqova Gulsevar*

Annotasiya. G‘azal mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug‘atayn" (ikki til muhokamasi) asari o‘zbek tilining naqadar boyligi va u orqali xalqimiz ma’naviyatining nechog‘lik buyukligini anglashga, tushunishga ko‘mak beruvchi nodir qo‘llanmadir. E’tiborlisi shundaki, Alisher Navoiyning vatanparvar olim sifatidagi ona tilimizning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini va uning boshqa tillardan kamlik joyi yo‘qligini, aksincha ularga nisbatan o‘ziga xos ustun jihatlarni isbotlab bergan "Muhokamat ul-lug‘atayn" ilmiy asari XV asrning oxirlarida yaratilgan bo‘lib, shu kunga qadar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga to‘liq tabdil qilinmagan edi. Endilikda, "muhokamat ul-lug‘atayn" asari maktab o‘quvchisi uchun o‘rganilishi, muhofaza qilinishi, eng muhimi, tushunilishi mumkin bo‘lgan noyob asar sifatida taqdim etilmoqda.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, arab tili, fors tili, siqtamoq, tush, ko‘k, ibora, Sakkokiy, Atoyi, Yaqiniy, Amiriy, Gadoyi, tarse’, "Qut ul-qulub", "Ayn ul-hayot",

Kirish: So‘z san’ati ahlining *boshqochisi va so‘z qimmatbaho gavhari xazinasining g‘aznaboni va nazm gulistonining sayroq bulbuli, ya’ni gunohlari mag‘firat qilinishi va ayblari yopilishini istaydigan Alisher, taxallusi Navoiy bunday arz qiladiki: so‘z shunday gavharki, uning daryosi ko‘ngildir va ko‘ngil shundayki, u idrokning barcha ma’nolarini o‘zida jamlovchidir. Xuddi daryodan gavhar g‘avvos vositasida chiqarilib jilva namoyish qilib, uning qiymati javhariga yarasha bo‘lganidek, ko‘ngildan ham so‘z gavhari nutq sharafi sohibi mahorati tufayli talqin va ziynat ko‘rsatadi. Uning qiymati ham martabasi nisbatiga ko‘ra yoyiladi va shuhrat qozonadi.

* Boshqochisi - hosili o‘rib olingan bug‘doyzor yoki sholizorlarda tushib qolgan don boshqochilarini teradigan kishi.

Uch til - Turkiy, Forsiy, Arabiy bu uch o‘g‘ilning avlodi va tarafdorlari o‘rtalarida keng yoyildi.

Arab tilining talqini: arab tili so‘zlari bilan adabiy til va kalom "Qur'on" bunyod topdi va hindcha so‘z bilan oqibati xayrli bo‘lmagan qalbaki narsalar aytildi. Biri benihoya sharaflik va oliy qadrlik bilan, ikkinchisi o‘sha bexosiyatlik va martaba tubanligi bilan oradan chiqdilar. Endi turkiy so‘zlar bilan maqsad ifodasi forsiy iboralar bilan kalom "Qur'on" ma’nosi talqini qoldi.

Shundan ma'lum bo'ladiki, turk forsdan tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq yaratilgandir. Fors turkdan aql yuritishda va ilmda nozikta'broq va kamol-u fazl tafakkurida teranroq zuhur qilibdur. Bu hol turklarning sidq-u safo va to'g'ri niyatidan va forslarning ilm-u fan va hikmatida namoyondir.

Turkning asl yaratilishida- xilqatda tab'i muloyimroq ekaniga bundan-da ajoyibroq dalil yo'qdirki, hech kim bu fikrga qarshilik etolmaydi: hamma forslar agar turk tilida gapirishga ojizman, deyishsa haqlidirlar. Chunki turk tili olimlari juda ko'p holatlarda mubolag'a ko'rsatib, o'ta mayda narsalarga ham so'z topib qo'yganlarki, bundan xabardor kishi aytmasa, bunga ishonib bo'lmaydi. Chunonchi, quvormoq- u quruqshamoq va usharmak- u jiyjaymoq va o'ngdaymoq - u chekrmak va do'msaymoq- u umonmoq va o'sanmoq - u igirmak va egarmak - u o'xranmak va toriqmoq -u aldamoq va erikmak- u igranmak va ovunmoq- u qistamoq va qiynamoq - u qo'zg'almoq va sovrulmoq - u chayqalmoq va devdashmoq - u qiymanmoq va qizg'anmoq - u nikamoq va siylamoq - u tanlamoq va qimirlamoq - u serpamak va sirmamak - u kanorkamak va munglanmoq - u indamak va tergamak - u tevrarak va qingg'amoq - u shig'almoq va singamak- u yashqamoq va ishqarmoq- u ko'ngranmak va suxranmoqu siypamoq va qoralamoq- u surkanmoq va kuykanmoq- u ingranmoq va tushalmak- u mung'aymoq va tanchiqamoq -tanchiqolmoq va ko'ruksamak -u bushurg'anmoq va bo'xsamoq va burmak- u turmak, tomshimoq -u qaramoq va sipqormoq -u chicharmak va jurkanmak -u o'rtanmak va sizg'urmoq -u gurpaklashmak va jirg'amoq va bichimoq- u qizkanmoq va singarmak - u kundalatmak va kunurmaku yikirmak va kungurdamak- u kinarmak va kezarmak -u duptulmoq va chidamoq- u tuzmak va qo'zg'onmoq -u qichig'lamoq va chimdilamoq -u kengsiramak - u yadamoq va qadamoq -u chiqanmoq va kundurmak - u sundurmak va suqlatmoq.

Ushbu 100 ta so'z ajib maqsadlar ifodasi uchun qo'llanilgandirlarki, bu tushunchalarning hech qaysisiga fors tilida so'z yasamaganlar. Holbuki, ushbu ma'nolar ifodasiga ehtiyoj bordir, gaplashgan paytda kishi ularni ishlatishga muhtoj bo'ladi.

Ulug' shoirlardan ba'zilar may ta'rifida mubolag'alar qilganlar va bu o'ta e'tiborli holatdirki, MAY ICHMOQ rasm -rusumida ko'p so'z yuritib, nihoyatsiz zarofatlar zohir qiladilar. Bu so'zlardan biri SIPQORMOQ tushunchasidirki, mubolag'a bundan ortiq bo'lmas, TURKIY nazmda bu matla' bordir:

SOQIYO, TUT MAYNIKIM, BIR LAHZA O'ZIMDAN BORAY,
SHART BUKIM, HAR NECHA TUTSANG LIMMO-LIM SIPQORAY.

Yoki TOMSHIMOQ so'zi cheksiz zavqlanishdan birdaniga ichmay, lazzat topa-topa oz-oz ichishni bildiradi. Bu ajoyib jumla ma'no talqinida turkiyda ushbu matla' bordir Bayt:

SOQIY CHU ICHIB, MANGA TUTAR QO'SH,
TOMSHIY-TOMSHIY ANI QILAY NO'SH.

"SIQTAMOQ" soʻzi yigʻlamoqda mubolagʻadir.(Kuchli yigʻlamoq,qaqshab-qaqshab yigʻlamoq)turk shoiri buni shunday talqin qiladi.

UL OYKI ,KULA-KULA QIROGʻLATTI MENI,
YIGʻLATTI MENI DEMAYKI,SIQTATTI MENI

Yana baland tovush bilan haddan tashqari dod-faryod qilib yigʻlamoqni OʻKURMAK deyдилar.Turkiyada u maʼnoda ushbu matlaʼ bor .

ISHIM TOGʻ UZRA HAR YON KOʻZ YOSHI SELINI SURMAKDUR ,
FIROQNING ZOʻRIDIN HAR DAM BULUT YANGʻLIGʻ OʻKURMAKDUR.

Bundan tashqari,"BOR" soʻzining toʻrt maʼnosi mavjud.

Birinchisi-mavjudlik

Ikkinchisi-ketmoqqa amr

Uchunchisi-yuk

Toʻrtinchisi - hosildir

Shuningdek,"SOGʻIN"soʻzining besh maʼnosi bordir.

Birinchisi-esga olmoq buyruq

Ikkinchisi-sutli qoʻyni ham sogʻin deydi

Uchunchisi-majnuni bemoriga ham sogʻin deyiladi

Va soʻngida " sogʻay" maʼnosida ularning har biriga nisbat bersa boʻladi.

Yana bir nav ibora va ifodalar borki,birovdan bir ishni gumonsirash bilan u ishni oʻsha kishiga nisbat beradilar: haqiqat yuzasidan emas,yoʻq,balki shubha va gumonga asoslanadilar.Ammo bunda ajib maʼnoli soʻzlar yaratiladi. Chunonchi,borgʻudek,yorgʻudek,kulgudek,bilgudek,aytqudek,qaytqudek,urgʻudek,va surgʻudek. Bunday soʻz hosil qilish usuli forsiyda boʻlmaydi..

Xulosa qilib aytganda,ushbu asar orqali turk,arab ,fors tillarida mavjud boʻlgan soʻzlar izohlarini oʻrganish, Atoyi ,Gadoyi va boshqa bobolarimiz yozgan asarlarining mazmuni chiqarib olishda bizga juda qoʻl keladigan 100 ta feʼl izohlari bordir. Demak, Mir Alisher Navoiy bobomiz yozgan asar bugungi kunda maktab ,litsey ,oliy oʻquv yurtlarida darslik sifatida oʻqitilib ,oʻrgatilib kelinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lugʻatayn" asari . Toshkent 2014
2. Turkiy tillar va forsiy tillardagi soʻzlar lugʻati
3. Alisher Navoiyning "Ikki til muhokamasi" tabdili